



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKIDOR KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi	



IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR	122
Karimova Iroda Abdusattarovna	
KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	128
Qurbonov Abror Abdullayevich	
GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi	
ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА	148
Джураева Гузаль Шавкатовна	
BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich	
Shukurova Nilufar Qahramonova	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich
TDIU Samarqand filiali, PhD

Tursunov Ozod Matlubovich
TDIU Samarqand filiali tadqiqotchisi

Shukurova Nilufar Qahramonova
TDIU Samarqand filiali tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini baholash masalasi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot 2021–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar hamda qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, e-tijorat hajmi 4 yil ichida 7 barobardan ziyod o'sib, davlat xizmatlarini raqamlashtirish darajasi 91 foizga yetgan. Biroq raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik zaifligi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar hali ham mavjud. Maqolada raqamli transformatsiyani yanada chuqurlashtirishga oid amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, iqtisodiyot, e-tijorat, raqamli hukumat, IKT, O'zbekiston, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос оценки эффективности процессов цифровой трансформации, реализуемых в экономике Республики Узбекистан. Исследование основано на статистических данных за период 2021–2025 годов и методах сравнительного анализа. Результаты показали, что объем электронной коммерции за 4 года увеличился более чем в 7 раз, а уровень цифровизации государственных услуг достиг 91%. Однако по-прежнему существуют такие проблемы, как цифровое неравенство, уязвимость кибербезопасности и нехватка квалифицированных кадров. В статье также предлагаются практические рекомендации по дальнейшему углублению цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая трансформация, экономика, электронная коммерция, электронное правительство, IKT, Узбекистан, эффективность.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of digital transformation processes implemented in the economy of the Republic of Uzbekistan. The study is based on statistical data for the period 2021–2025 and comparative analysis methods. The results showed that e-commerce volume increased more than sevenfold over four years, and the level of digitalization of public services reached 91%. However, challenges such as digital inequality, cybersecurity vulnerabilities, and a shortage of qualified personnel remain. The article also offers practical recommendations for further deepening digital transformation.

Keywords: digital transformation, economy, e-commerce, e-government, ICT, Uzbekistan, efficiency.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya — bu faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv tizimlarini qayta qurishning keng ko'lamli jarayonidir (Schwab, 2017). Rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu jarayon imkoniyatlar va qiyinchiliklarning o'ziga xos kombinatsiyasini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab keng ko'lamli islohotlar dasturini amalga oshirib kelmoqda. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish yo'lida muhim poydevor bo'ldi. Prezident Sh. Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (IKT) sohasiga katta sarmoyalar yo'naltirildi, elektron hukumat tizimlari joriy etildi, start-up ekotizimi rivojlantirildi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning haqiqiy iqtisodiy samarasini o'lchash va baholash murakkab metodologik masala bo'lib qolmoqda. Bir qator tadqiqotchilar (Brynjolfsson & McAfee, 2014; OECD, 2020) raqamli



texnologiyalar iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini aniq miqdoriy baholashning qiyinligini ta'kidlaydilar. O'zbekiston misolida ushbu muammo yanada dolzarb tus oladi, chunki statistik bazaning cheklanganligi va institutsional o'tish davri omillari tahlilni murakkablashtiradi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining samaradorligini ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash va ushbu jarayonni tezlashtirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston YIM hajmi jihatidan Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiyotlaridan biri bo'lib, 2025-yilda 147 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Biroq raqamli iqtisodiyot indeksi bo'yicha mamlakat hali ham mintaqaviy raqobatchilari — Qozog'iston va Rossiyadan orqada turibdi. Hukumat 2030-yilga borib IKT sektorining YIMdagi ulushini 7 foizga yetkazishni maqsad qilib belgilagan. Ushbu maqsadning qanchalik realligi va unga erishish yo'llari ilmiy muhokamani talab etadi.

Miqdoriy tahlil uchun quyidagi manbalardan foydalanildi:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2021–2025-yillar uchun rasmiy ma'lumotlari;
- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hisobotlari;
- Jahon banki va EBRDning O'zbekistonga doir tahliliy ma'lumotlari;
- Xalqaro elektroaloqa ittifoqi (ITU)ning raqamli ko'rsatkichlar bazasi;
- e-gov.uz va my.gov.uz platformalarining foydalanuvchi statistikasi.

Raqamli transformatsiya samaradorligini baholash uchun to'rt o'lchovli ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi: (i) infratuzilma va ulanish darajasi — internet qamrovi, keng polosali tarmoqlar zichligi, mobil aloqa qamrovi; (ii) iqtisodiy ta'sir — e-tijorat hajmi, IKT sektori YIM ulushi, raqamli to'lovlar hajmi; (iii) boshqaruv va xizmatlar — davlat xizmatlarini raqamlashtirish darajasi, fuqarolarning onlayn xizmatlarga murojaat ko'rsatkichi; (iv) inson kapitali — IT mutaxassislari soni, raqamli savodxonlik darajasi.

Miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun dinamik tahlil (trend tahlili), korrelyatsiya-regressiya tahlili hamda qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Statistik ishlov berish IBM SPSS 29 va Microsoft Excel dasturlarida amalga oshirildi. Sifatiy ma'lumotlar tematik kodlash va mazmun tahlili (content analysis) yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi sifatida rasmiy statistikaning ba'zan to'liq bo'lmasligi va "soyali" raqamli iqtisodiyotni hisobga olmagan holda tuzilganligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, intervyudan olingan sifatiy ma'lumotlar o'z-o'zicha tanlab olingan guruhga asoslanishi sababli umumlashtirishda ehtiyot bo'lish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya jarayonlarini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi va institutsional samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee 2014-yilda chop etilgan tadqiqotida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli innovatsiyalar nafaqat texnologik, balki institutsional o'zgarishlarni ham talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar muhim o'rin tutadi. Xususan, International Telecommunication Union 2019-yilda e'lon qilgan hisobotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish indeksleri orqali mamlakatlarning raqamli salohiyati kompleks baholanadi. Raul Katz 2012-yilda keng polosali internet infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sirini asoslab, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi yalpi ichki mahsulot o'sishiga xizmat qilishini empirik jihatdan isbotlaydi.

Davlatning raqamli transformatsiyadagi roli alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir. Mariana Mazzucato 2018-yildagi tadqiqotida davlatni innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rsatadi va davlat investitsiyalari hamda strategik boshqaruvsiz raqamli iqtisodiyotning samarali shakllanishi qiyin ekanligini asoslaydi. Klaus Schwab 2017-yilda To'rtinchi sanoat inqilobi konsepsiyasini ilgari surib, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning transformatsiyasini tezlashtirayotganini ta'kidlaydi.

Xalqaro tajriba ham raqamli transformatsiya samaradorligini baholashda muhim manba hisoblanadi. OECD 2020-yilda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini kompleks indikatorlar asosida baholash zarurligini qayd etadi. UN DESA 2024-yildagi elektron hukumat bo'yicha hisobotida davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi boshqaruv samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Shuningdek, e-Estonia tajribasi 2023-yilda raqamli hukumat tizimining yuqori samaradorlikka erishishda muhim omil ekanligini namoyish etadi. UNDP 2021-yilda raqamli inklyuziya masalalariga e'tibor qaratib, raqamli tafovutni kamaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarni ochib beradi. World Bank 2023-yilda O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti bo'yicha baholash hisobotida raqamli infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhitni rivojlantirish zarurligini asoslaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni asosida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirishning institutsional asosini yaratdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari esa raqamli xizmatlar hajmi va ulardan foydalanish darajasi yil sayin oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlar, jumladan Ibragimov Gayrat Ablaqulovich, Kurramov Ortiqjon Kayumovich va Tursunov Ozod Matlubovich tadqiqotlarida xizmatlar sektori va global tarmoqlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. Mamasoliev Sodikjon Avazalievich va hammualliflar ishlab chiqarish samaradorligi hamda moliyaviy natijalarga raqamli va institutsional omillarning ta‘sirini tahlil qilgan. Murtazaev Olim va Ibragimov Gayrat Ablaqulovich esa qishloq xo‘jaligida iqtisodiy aloqalar samaradorligini prognozlash orqali raqamli yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya samaradorligini baholash ko‘p omilli yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda infratuzilma rivoji, inson kapitali, davlat siyosati, institutsional muhit va raqamli inklyuziya darajasi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash davomida tadqiqot materiallari, milliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy ishlari natijalari, shuningdek, vazirliklar, O‘zbekiston Respublikasi

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqotda kombinatsiyalashgan (mixed-methods) yondashuv qo‘llanildi, bu esa miqdoriy statistik tahlilni sifatli ekspert baholash bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Ushbu yondashuv murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni har tomonlama o‘rganishda keng qo‘llaniladi (Creswell, 2014).

TAHLIL VA NATIJALAR

2021–2023-yillar orasidagi empirik ma‘lumotlar O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning jadal sur‘atda amalga oshirilganini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda asosiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2021	2022	2023	2024	2025
Internet foydalanuvchilar soni	mln birlik	25,4	28,7	31,2	34,5	36,8
E-tijorat hajmi	mlrd. so‘m	3150	5470	9820	15640	22300
Davlat xizmatlari raqamlashtirish darajasi	%	52	67	78	85	91
IT sohasidagi ish o‘rinlari	ming	24,7	31,5	42,3	54,8	68,2
IKT sektori YIM ulushi	%	2,9	3,4	4,2	5,1	5,8

1-jadval ko‘rsatkichlariga ko‘ra, e-tijorat hajmi 2021-yildagi 3150 mlrd so‘mdan 2025-yilga kelib 22 300 mlrd so‘mga oshdi — bu atigi 4 yil ichida 7 barobardan ziyod o‘shishni anglatadi. Internet foydalanuvchilar soni esa 25,4 milliondan 36,8 millionga yetdi, ya‘ni mamlakat aholisining 95 foizidan ko‘prog‘i internetga ulanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, my.gov.uz yagona portal orqali taqdim etiladigan davlat xizmatlarining soni 2021-yildagi 310 turdan 2025-yilga kelib 850 turdan oshdi. Aholining onlayn xizmatlarga murojaat darajasi 2021-yildagi 38 foizdan 2025-yilda 79 foizga oshganligi qayd etildi. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘rtacha darajasidan (52%) sezilarli darajada yuqoridir.

BMT-DESA (2024) elektron hukumat rivojlanish indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 193 davlat orasida 58-o‘rinni egalladi — 2022-yildagi 69-o‘ringa nisbatan sezilarli yutuq. Intervyu natijalariga ko‘ra, ekspertlarning 80 foizi hukumat xizmatlarini raqamlashtirish tendensiyasini ijobiy baholab, jarayonning tezlashuvini qayd etdi.

Korrelyatsiya tahlili natijalari IKT sektori ulushining YIM o‘shishi bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya ($r = 0,94$, $p < 0,01$) borligini ko‘rsatdi. Regressiya modeli shuni tasdiqlaydi: IKT sektorining YIMdagi ulushi 1 foizga oshishi real iqtisodiy o‘shishni o‘rtacha 0,31 foizga tezlashtiradi. Bu natija xalqaro tadqiqotlar (ITU, 2019; Katz, 2012) bilan mos keladi.

IT sohasidagi ish o‘rinlari dinamikasi ham muhim natija sifatida ajralib turadi: 4 yil ichida 24 700 dan 68 200 gacha o‘shish kuzatildi. 2025-yilda IT Park rezidentlari tomonidan eksport qilingan dasturiy ta‘minot va xizmatlar hajmi 2,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi — 2021-yilga nisbatan 5 barobardan ziyod o‘shish.

Biroq ma‘lumotlar raqamli bo‘shliqning hali sezilarli ekanligini ham ko‘rsatdi. Shaharda yashovchilar bilan qishloq aholisi o‘rtasidagi internet foydalanish ko‘rsatkichlari farqi 2025-yilda 22 foiz punkttni tashkil etdi (mos ravishda 98% va 76%). Bu farq 2021-yildagi 35 foiz punktga nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, hali to‘liq bartaraf etilmagan. Viloyatlar bo‘yicha tahlil Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida raqamli savodxonlik

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi va ATKR Vazirlik hisobotlari asosida tuzilgan.



darajasining past ekanligini ko'rsatdi. 65 yoshdan oshgan aholining 71 foizi onlayn xizmatlardan foydalanmaydi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda raqamli transformatsiya yo'lidagi dastlabki yutuqlar bor ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Estoniya yoki Singapur kabi "raqamli peshqadam" davlatlar bilan solishtirganda mamlakat hozirgacha ushbu yo'ning boshida turibdi. Estoniyada davlat xizmatlarining 99 foizi onlayn taqdim etiladi va IKT sektori YIMdagi ulushi 7 foizni tashkil etadi (e-Estonia, 2023).

E'tiborga molik natija shuki, O'zbekistonda raqamli transformatsiya asosan "yuqoridan pastga" — hukumat tashabbusi orqali amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv tez natijalar berishi bilan birga, innovatsion ekotizimning mustaqil rivojlanishini cheklashi mumkin (Mazzucato, 2018). Ekspert intervyulari ham bu fikrni qo'llaydi: 73 foiz respondent «xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur» degan fikrni bildirdi.

Tadqiqot natijalaridagi eng muhim topilma — shahar va qishloq o'rtasidagi raqamli tafovut. Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, ushbu bo'shliq bartaraf etilmasa, raqamli transformatsiya faqat aholining imtiyozli qismiga xizmat qiladi va ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiradi (UNDP, 2021). Shu munosabat bilan O'zbekiston uchun "raqamli inklyuzivlik" strategiyasini ishlab chiqish nihoyatda muhim.

2024-yilda O'zbekiston tashkilotlariga yo'naltirilgan kiberhujumlar soni oldingi yilga nisbatan 2,1 barobar oshganligi qayd etildi (CERT O'zbekiston, 2025). Raqamli xizmatlardan foydalanishni cheklashga undayotgan omillar orasida ekspertlarning 67 foizi kiberxavfsizlikka nisbatan ishonchning sustligini birinchi o'rinda ko'rsatdi. Raqamli transformatsiya muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolar va tadbirkorlarning raqamli tizimlarga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

Toshkent IT Park va Inha universiteti kabi tashkilotlar muhim rol o'ynamoqda, ammo ta'lim tizimini raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga yanada moslashtirish zarur. Intervyulardagi ekspertlarning 87 foizi o'rta maktablardagi informatika ta'limini tubdan isloh qilish lozimligini ta'kidladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Qishloq va chekka hududlarda arzon tarmoqli keng polosali internet infratuzilmasini yaratishni tezlashtirish, buning uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish;

Kiberxavfsizlik milliy strategiyasini yangilash va Milliy CERTning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Maktablarda raqamli kompetensiyalarni asosiy o'quv faniga aylantirish va o'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish;

Start-up va IT kompaniyalar uchun soliq imtiyozlarini 2030-yilgacha uzaytirish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

Raqamli transformatsiya ko'rsatkichlarini yagona ochiq ma'lumotlar platformasida muntazam nashr etish va mustaqil monitoring tizimini joriy etish.

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atda amalga oshirilayotganini, ammo uning mevalaridan barcha fuqarolar teng foydalana olmasligini ko'rsatdi. E-tijorat, elektron hukumat va IT ish o'rinlari bo'yicha erishilgan natijalar salmoqli bo'lsa-da, raqamli bo'shliq, kiberxavfsizlik va kadrlar yetishmasligi muammolari yanada chuqur e'tiborni talab etadi.

Raqamli transformatsiyani inklyuziv va barqaror ravishda chuqurlashtirish uchun texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritish bilan bir qatorda inson kapitalini rivojlantirish, institutsional salohiyatni mustahkamlash va keng ijtimoiy ishonch muhitini yaratish zarur.

Kelajak tadqiqotlar uchun O'zbekiston raqamli iqtisodiyotining mintaqadagi boshqa davlatlar bilan qiyosiy tahlilini kengaytirish, shuningdek, raqamli transformatsiyaning gender va yoshga qarab farqli ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>

2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.

3. CERT O'zbekiston. (2025). *Yillik kibertahdidlar hisoboti – 2024*. Toshkent: ATKRVazirlik nashri.

4. Creswell, J. W. (2014). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches* (4th ed.). Sage Publications

5. e-Estonia. (2023). *Digital society*. Retrieved from <https://e-estonia.com/solutions/>

6. Ibragimov Gayrat Ablalovich. *Consulting Services in Uzbekistan Agriculture //Regional economic cooperation in Central Asia: Agricultural production and trade*. 24-26 November 2014. Halle (Saale) |Germany.



7. ITU. (2019). Measuring the Information Society Report 2019. Geneva: International Telecommunication Union.
8. Katz, R. (2012). The Impact of Broadband on the Economy. Geneva: ITU.
9. Kurramov Ortqjon Kayumovich, Ibragimov Gayrat Abraqulovich, Tursunov Ozod Matlubovich. Role of using global network in sphere of service and tourism//Trends in Economics and Management for 21th Century: inter. conf. 2012 20th-22nd September. – Brno, Czech Republic, 2012. –pp-202-203.
10. Mazzucato, M. (2018). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Penguin Books.
11. Mamasoliev Sodikjon Avazalievich, Ibragimov Gayrat Abraqulovich, Murtazaev Olim, Ganiev Ibragim Mamadiyevich, Mariusz Maciejczak. Production capacity and financial results of an enterprise from the grain industry in Uzbekistan.//ANNALS of The Polish Association of Agricultural and Agribusiness Economists, 2013. ISSN 1508-3535. Volume 15/5-11-15 pp.
12. Murtazaev Olim, Ibragimov Gayrat Abraqulovich The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019-5170) Issue 400. Pages 6
13. OECD. (2020). Digital Economy Outlook 2020. Paris: OECD Publishing.
14. Tursunov Ozod, Ibragimov Gayrat. Roles of investment and service system sector in agriculture//Visnik XNAU: Seriya Ekonomichni nauki. –XNAU, Xarkov, Ukraina, 2013. –№3. –s 203-215.
15. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. Crown Business.
16. UNDP. (2021). Digital Inclusion: Expanding Digital Access and Literacy. New York: United Nations Development Programme.
17. UN DESA. (2024). E-Government Survey 2024: The Future of Digital Government. New York: United Nations.
18. World Bank. (2023). Uzbekistan Digital Economy Assessment. Washington, D.C.: The World Bank Group.
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari – www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>